

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A.Abdualiyeva	
Markaziy Osiyo o'rtta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A.Nishonov	
Farg'ona vodiysida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A.Aloxunov, B.B.Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A.Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X.Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X.Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V.Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M.Maxmudov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhojirlari taqdiri	695
A.M.Maxmudov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK

K.A.Topvoldiyev	
Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
H.K.Sabirov	
Средняя Азия в путевых заметках Ф.С.Ефремова	706
A.P.Kosimov	
Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
H.A.Jo'rayev, Y.I.Nishanov	
Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
H.M.Karimova	
Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
Y.I.Nishanov	
Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
I.H.Doroina	
«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
Э.Ф.Гиздулин	
Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
X.Sharifiddinov	
Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
E.Ibragimova, N.Sharafutdinova	
Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
G.V.Abdullayeva	
Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
S.A.Xodjayev, Ch.I.Turg'unova	
O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
X.A.Abdulxamidova, D.U.Jamoliddinova	
Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
X.J.Jamolova	
Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
M.M.Xamidov	
O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
R.M.Umurzakov	
Bola obrazining nazariy muammolari	761
J.B.Sayidolimov	
"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765



UO'K: 821+811.512+141.31

“VASIYATNOMA” – KICHIK AGIOGRAFIK ASAR

“ЗАВЕЩАНИЕ” – НЕБОЛЬШОЕ АГИОГРАФИЧЕСКОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ

“THE WILLNAME” – IS A SMALL AGIOGRAPHIC WORK

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti adabiyotshunoslik kafedrasida o'qituvchisi,

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni hayoti va faoliyati haqida qisqacha so'z yuritilgan. Bundan tashqari xojagon tariqatidagilar uchun Abdulxoliq G'ijduvoni qalamiga mansub “Vasiyatnoma” asarining o'ziga xos dastur vazifasini bajarganligi hamda mazkur tariqatga kirganlar uchun xojagon tariqatining mazmun-mohiyatini ochib berganligi ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda mazkur turdagi manbalar agiografik asarlar qatoriga kirishi, bundan tashqari bu tasnifdagi asarlar ichida “Vasiyatnoma”lar nima sababdan kichik agiografik manbalar qatoriga kiritilganligiga ham to'xtalib o'tilgan. “Vasiyatnoma” asarining mutaassiblik va johillikdan qaytarish hamda ilm-ma'rifatga targ'ib etish kabi jihatlari alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация

В этой статье кратко рассказывается о жизни и деятельности Ходжи Абдулхалика Гиждувани. Кроме того, было показано, что “Завещание” Абдулхалика Гиждувани выполняет особую программную функцию для тех, кто принадлежит к этой Тартарии, и раскрывает сущность Тартарии хожего. Также было отмечено, что этот тип произведений относится к агнографическим произведениям и по какой причине они относятся к малым агнографическим источникам. Особое внимание уделяется таким аспектам работы “Завещание”, как отвлечение от фанатизма и невежества, а также содействие просвещению.

Abstract

This article briefly talks about the life and work of Khoja Abdulkholik Gijduvani. In addition to this, it is shown that Abdulkholik Gijduvani's “Vasiyatnoma” for those in the khojagonian sect served as a kind of program and revealed the essence of the khojagonian sect for those who entered this sect. It is also mentioned that the works of this type are among the agiographic works and why they are included among the minor agiographic sources. Particular attention is paid to aspects of the “Vasiyatnoma”, such as the repulsion from fanaticism and ignorance, and the promotion of science to enlightenment.

Kalit so'zlar: vasiyatnoma, agiografik adabiyot, tariqat, pir, murshid, solik, tasavvuf, yetti pir, xojagon-naqshbandiya tariqati, rashha.

Ключевые слова: завещание, агнографическая литература, тарикат, пир, муршид, солик, суфизм, семь пиров, тарикат хожего-накшбандия, рашха.

Key words: will, agiographic literature, tariqat, pir, murshid, solik, sufism, seven pir, khojagon-naqshbandi sect, rashha.

KIRISH

Xojai Jahon nomi bilan mashhur bo'lgan hamda xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi hisoblangan Xoja Abdulxoliq ibn Abuljamil G'ijduvoni 1103-yil G'ijduvonda tavallud topgan. Otasi Imom Abuljamil asli rumlik bo'lib mashhur Imom Molik avlodlaridan hisoblangan. Onasi esa Malatiya mamlakati hukumdorining qizi bo'lgan. Abdulxoliq G'ijduvoni Buxorodagi yetti piring birinchisi hisoblanadi. Ustozi Yusuf Hamadoniyning sufiylik ta'limotini maxfiy zikr bilan boyitish barobarida xojagon tariqatining sakkiz qonun-qoidalari (rashha)ni shakllantirgan. Mazkur rashhalar “Kalimoti qudsiya” deb yuritilgan bo'lib, keyinchalik Abdulxoliq G'ijduvoniyning ma'naviy farzandi Bahouddin Naqshband tomonidan uchta qoidaning ilova qilinishi xojagon-naqshbandiya tariqatining to'liq shakllanishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda tasavvuf ilmiga bag'ishlangan qator asarlarni me'ros qoldirgan. “Tariqat odobi” (“Haqoyiq ul-iymon”, “Daqoyiq ul-irfon” nomlari bilan ham yuritiladi), “Maqomoti Yusuf Hamadoni” (mazkur asar “Risoi Sahibiya” nomi bilan ham

yuritiladi), "Vasoya" ("Vasiyatnoma"), "Az guftori Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni" ("Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni so'zlaridan") singari asarlar shular jumlasidan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1993-yil birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni tavalludining 890 yilligi, 2003-yilda Abdulxoliq G'ijduvoni tavalludining 900 yilligi, 2018-yilda Shavkat Mirziyoyev tomonidan Abdulxoliq G'ijduvoni tavalludining 915 yilligi va Bahovuddin Naqshband tavalludining 700 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi farmonlari asosida qator ishlar amalga oshirildi. "Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi", "Yetti pir", "Hazrati Bahovuddin Naqshband", "Maqomoti Yusuf Hamadoni", "Vasiyatnoma" va boshqa ko'plab asarlarning nashr etilishi shular jumlasidandir. "Vasiyatnoma" asari xojagon-naqshbandiya tariqatidagilar uchun muhim manba hisoblanib, o'zida makur tariqatning mazmun-mohiyatini namoyon etadi. Bu asarga biografik metod asosida yondashilgan holda "Vasiyatnoma"ning badiiy jihatlariga e'tibor qaratish barobarida agiografik xususiyatlariga ham to'xtalib o'tilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sharq mumtoz adabiyotini islomiy qarashlar va tasavvuf adabiyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Naqshbandiya tariqatining asoschisi sifatida e'tirof etilgan Bahovuddin Naqshband hayoti va faoliyati "Dil ba yoru, dast bakor" jumllarida o'z aksini topgan. Nashbandiya boshqa tariqatlardan farqli ravishda tarkidunyochilikdan qaytarish va "zikri xafif" orqali boshqalar bilan bir qatorda yashab, mehnat qilish orqali Haqqa yetishishni targ'ib qiladi. Buni mazkur tariqatdagi 11 usulda ko'rishimiz mumkin:

1. Hush dar dam – har bir nafasni hushyorlik bilan olish.
2. Nazar bar qadam – har bir qadamni hushyorlik bilan bosish.
3. Safar dar Vatan – o'z vatanida, uyida o'tirsa-da, fikran va zikran butun koinot va mavjudot haqida tafakkur yuritish.
4. Xilvat dar anjuman – o'zi xalq ichida, anjumanda bo'lsa ham xilvatda o'tirgandek fikr-u zikri Alloh bilan bo'lish.
5. Yod kard – til va dil bilan birga zikr qilish.
6. Boz gasht – zikr paytida xotirni parishon qilmaslik va Allohdan boshqani yodga keltirmaslik.
7. Nigoh dosht – bir nafasda huzuri dil ila kalimai tayyibani bir necha bor aytish.
8. Yod dosht – doimiy ravishda Allohni yodda tutish, dilni g'aflatdan saqlash.
9. Vuqufiy zamoni – solikning o'z holiga qarab, ne'matlarga shukr va taqdir-u kamchilikka uzr keltirib yurish.
10. Vuqufiy adadiy – zikrlarda muayyan adadlarni kam yoki ziyoda qilmaslik.
11. Vuqufiy qalbiy – zikr qiluvchining qalbi Haq taollo bilan bog'liq va undan ogoh bo'lib turish.[1. 7-8]

Yuqoridagi maxfiy zikrlar sabab ham bu tariqati butun dunyoda keng tarqalgan. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, naqshbandiya tariqatidagi bu usullar uzoq davr mobaynida shakllangan. Dastlabki to'rt usul Yusuf Hamadoni tomonida yaratilgan bo'lsa, keyingi to'rt usul esa Abdulxoliq G'ijduvoni tomonidan ilova qilingan. So'nggi uch usul Bahovuddin Naqshband tomonidan ilova qilinishi bilan xojagon-naqshband tariqatidagi o'n bir usul yaxlit holda e'tirof etilgan. Abdulxoliq G'ijduvoni 22 yoshidan Yusuf Hamadoniya murid bo'li u zotdan uzoq yillar ta'lim olgan. Abdulxoliq G'ijduvoni 1118-1120-yillar atrofida vafat etgan bo'lsa, Bahovuddin Naqshband esa 1318-yil tavallud topgan. Ko'rinib turibdiki oradagi vaqt anchayin katta. Lekin ayrim rivoyatlarda keltirilishicha Bahovuddin Naqshbandni ruhi jihatdan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni tarbiya qilgan. Bahovuddin Naqshbandning pir-u ustozlari silsilasiga e'tibor qaratsa, naqshbandiylik tariqatining asli Abdulxoliq G'ijduvoni dan boshlanishini ko'rishimiz mumkin:

1. Abdulxoliq G'ijduvoni.
2. Xoja Orif Regraviy.
3. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy.
4. Xoja Ali Rometoni.
5. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy.
6. Sayid Amir Kulol.
7. Bahovuddin Naqshband.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Bundan tashqari mazkur silsilaga e'tibor qaratsak Buxorodagi yetti pir ziyoratgohlarining o'zaro bog'liqligi bevosita xojagon-naqshbandiya tariqati bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Rivoyatlarda keltirilishicha Abdulxoliq G'ijduvoniyning otasi Imom Abuljamil 113 yoshgacha farzandli bo'lmaydi. Kunlarning birida Abuljamilning uyiga nuroniy bir oqsoqol kelib uning farzandli bo'lishining bashoratini beradi. Shu bilan bir qatorda tug'ilajak farzand uning kampiridan emas aslzoda malikadan tug'ilishini bildiradi. Ma'lum bir voqealardan so'ng Malatiya mamlakati podshohining qiziga uylangan Abuljamil qoshiga yana o'sha nuroniy oqsoqol kelib u kutayotgan farzand Buxoroda tug'ilishining bashoratini bergandan so'ng Imom Abuljamil safarga o'tlanadi. Buxoroga yetib kelgan Imom Abuljamil G'ijduvon qal'asiga joylashadi va oradan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng uning oilasida o'g'il farzand dunyoga keladi. Tug'ilgan chaqaloqqa Abdulxoliq deb nom beradilar. Mazkur rivoyatda aytilishicha nuroniy oqsoqol Xoja Xizir bo'lgan. Bundan tashqari besh yoshida otadan ajaralgan Abdulxoliq G'ijduvoniya ham Xoja Xizir ma'naviy otalik qiladi. Qalb zikrini ham Xoja Xizir orqali o'rganganligi hamda Xoja Xizir amri bilan Yusuf Hamadoniyni pir sifatida qabul qilgan [2. 45-47].

Yigirma besh yilda ziyodroq vaqt oralig'ida Yusuf Hamadoniyni xizmatida bo'lgan Abdulxoliq G'ijduvoniyni ustozining singari ko'plab karomatlar ko'rsatgan. "Xojai Jahonni haftaning dushanbasi Xorazmda ko'rgan xalq, seshanba, chorshanba kunlari Chorjo'y, Hiri, Hamadon-u Nishopurda va'z aytib, yurgani xabarini eshitib, yoqa ushlardilar" [2. 55]. Ko'pchilik Xojaning va'z-nasihatlaridan bahrmand bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bunday vaz'xonliklar natijasida xojagon tariqatining mohiyatini ham anglaydilar. Abdulxoliq G'ijduvoniyni umrining so'nggi yillarida "Vasiyatnoma" asarini yaratadi. "Unda muallif hazratlari farzandiga nisbatan: "Ey farzand!" deb xitob qilgan bo'lsa-da, aslida butun xojagon tariqatining muxlis va muridlariga tegishlidir" [3. 8]. Mazkur asar keyinchalik xojagon-naqshbandiya tariqatidagilar uchun o'ziga xos dastur vazifasini ham bajarib kelmoqda. Vasiyatnoma Sharq adabiyotida anchayin keng tarqalgan bo'lib, dastlab, "Qisas ul-anbiyo" turkumidagi asarlarda keng qo'llanilgan. Har bir payg'ambar vafotidan oldin o'z qavmiga Haq yo'lida sobitqadam bo'lish, yomonliklardan qaytishni vasiyat qilganligi bilan bog'liq lavhalar batafsil bayon etilgan. Davrlar o'tishi bilan "Vasiyatnoma"larni alohida asar sifatida yaratish tajribasi ham yuzaga keldi. Vasiyatnomalarining o'ziga xos jihati shundaki, u yozma yoki og'zaki shaklda bo'lishidan qat'iy nazar bajaruvchi tomonidan "ilohiy burch" sifatida qabul qilinadi. "Vasiyatnoma muayyan shaxsning (vasiyatchining) u vafot qilgan taqdirda, o'ziga qarashli bo'lgan mol-mulkning tasarruf etilishi bo'yicha xohish-irodasi bayon qilingan hujjat" [4.] Izohli lug'atda berilgan tarafdagi **"o'ziga qarashli"** jumlasini alohida ahamiyatga ega. Chunki vasiyat qilingan ish deyarli har doim vasiyatchining yaqinlari tomonidan bajarilgan. Masalan, Abdulxoliq G'ijduvoniyni vasiyatnomasi xojagon-naqshbandiya tariqatidagilar uchun, Ahmad Yassaviyni hikmatlaridagi vasiyat shaklidagi chaqiriqlar yassaviylik tariqatidagilar uchun dastur vazifasini bajaradi. Shu jihatdan ham vasiyatnomalarda agiografik jihatlar yaqqol ko'rinib turadi. Zero agiografik xarakterdagi asarlardan ko'zlangan maqsad yaxshi xulqli insonni tarbiyalash. Vasiyatnomalarda har doim ma'lum bir ishni bajarish emas, aksincha yomonlikdan qaytish haqidagi chaqiriqlar kuchli bo'ladi. Mazkur turdagi manbalar ko'pincha turli asarlar ichida kelishi, ayrim o'rinlarda og'zaki shaklda bo'lishi kabi jihatlar hisobga olingan holda avval Sharq agiografiyasining o'ziga xos jihatlari asoslanib "kichik agiografik asarlar" qatoriga kiritish mumkin deb hisoblaymiz [5. 5-7].

Abdulxoliq G'ijduvoniyni qalamiga mansub "Vasiyatnoma" hajm jihatida kichik bo'lsa ham xojagon tariqatining mohiyatini yoritish barobarida badiiy jihatlar bilan mumtoz adabiyotimizdagi bu turdagi asarlardan ajralib turadi. Asarda hamd va nat' qismi nihoyatda qisqa, ya'ni bir gapdan iborat holda bayon etilgan. Buning o'ziga xos jihati shundaki, vasiyatnomada muallifning Haqqa yetishish yo'lidagi qarashlari berilganligi va Muhammad alayhissalomning faoliyati misol keltirilgani sababda hamd va nat' qisqa holda berilgan. Abdulxoliq G'ijduvoniyni fikrlarini to'g'ridan to'g'ri tasavvuf yo'lga kirgan kishiga qaratadi. "Agar solik kishi (tariqat yo'lchisi) ushbu nozik so'zlar bilan mavzuf (sifatlangan) bo'lsa, ma'rifat chashmasidan uning jon qadahiga tomizdilar va u abdul-abad Haqning mast (oshig'i) bo'ladi" [3. 47]. "Vasiyatnoma"dagi "Ey farzandim!" jumlasini ayrim qo'lyozmalarda Abdulxoliq G'ijduvoniyni ma'naviy farzandi – xalfasi Avliyoi Kabirga qarata aytilgan degan qarashlar ham mavjud. Xojagon-naqshbandiy tariqatida solik tariqatga kirgandan so'ng jamiyatning barcha qatlamlariga yaxshi munosabatda bo'lishi ta'kidlab o'tiladi. "Ey farzandim!" Men senga taqvoli shior qilib olishingni vasiyat qilaman. Ibodat vazifalarni o'zingga

lozim tut va doimo Allohdan qo'rquvchi bo'l. xudo va rasulning haqlarini hamda ota-onang hurmatlarini saqla. Bu xislatlar bilan Allohing rizosiga Musharraf bo'lasan". Hozirgi kunda ma'lum bir oqimlar ta'siriga tushib qolganlar nafaqat jamiyatdan balki ota-onalaridan ham yuz burmoqda. Muallifning yuqorida keltirilgan fikrlariga e'tibor qaratsak ota-onaning hurmatini saqlash Haqning rizoligiga yetishishga sabab bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Shu jihatdan ham mazkur asarning keng targ'ib qilinishi jamiyatni yod g'oyalarga va mutaassiblikka berilishdan saqlashga xizmat qiladi. Abdulxoliq G'ijduvoniylar ilm olish, unga amal qilish va egalagan ilmi bilan maqtanmaslikka chaqiradi. "Va yana ilm talab qilishdan oyoqlaringni kanda qilma... Johil so'fiylardan yiroq bo'l. Va ularning avomidan ham uzoq bo'lginki, ular din o'g'rilari va musulmonlar dini(ning) qaroqchilaridir... To ilm va ma'rifat hosil qilmaguncha imom va muazzin bo'lma... Xonaqoh qilma va xonaqohda (shayxlik qilib) o'tirma. Seni maqtasalar mag'rur bo'lma". Keltirilgan fikrlarda tarkidunyochilikdan saqlanish, uzlatga chekinish kabi xislatlar qoralanmoqda. Shu bilan bir qatorda har bir inson o'z ishini puxta egallashi kerak ekanligi ta'kidlanmoqda. Muallif ayrim o'rinlarda fikrining tasdig'i sifatida iqtibos badiiy san'atiga murojaat qilgan holda oyat va hadislardan misollar keltiradi. "Mustafo (alayhissalom) buyuradilarki, "Men bilganimni agar sizlar bilganingizda edi, kam kulib, ko'p yig'lardinglar". Abdulxoliq G'ijduvoniylar muridlariga vasiyat qilgan ekan ularga ota-ona farzandi uchun qanchalik qayg'ursa pir ham o'z muridlariga shu qadar qayg'urishini alohida ta'kidlaydi. "Ey farzandim, shayx (pir) muridlariga ota o'rnidir. Balki undan shavqatliroqdurki, u qurbat (Allohga yaqinlik) maqomiga yetkazadi". Mazkur jumlaning berilishida asar muallif tomonidan o'g'liga aytilayotgan vasiyatlar aslida bashariyatga dahldor ekanligini anglab olish mumkin. Rizq haqida gap ketganda muallif fikrining tasdig'i sifatida bir bayt keltiradi:

Olam atrofida har qadar kezib yurdik,

Rizq-u umrimiz hech o'zgarmadi, ko'rdik...

Abdulxoliq G'ijduvoniylar mazkur baytni solkilar tilidan keltirgan bo'lsa-da, o'z ham xojagon tariqatining mohiyatini namoyon etgan to'rtliklar yozganligi ma'lum.

Muallif kitobxonga insonlardagi yaxshi va yomon xislatlarni o'zining hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda bayon etadi. Bu orqali o'quvchini ibrat olishga chaqiradi. "Birovda besh xislat ko'rmaguningcha, uni yurakdan (samimiy) qabul qilma: birinchisi, faqirlikni boylikdan afzal bilsin. Ikkinchisi, ilmni jaholatdan afzal bilsin. Uchinchisi, xorlikni izzatdan afzal bilsin. To'rtinchisi, oshkor va pinhona amallardan voqif bo'lsin. Beshinchisi, o'limga tayyor tursin". Keltirilgan jumlar orqali yuqorida aytilganiday, mazkur asar faqat tariqat yo'lidagilar uchungina emas, aksincha, keng ommaga qaratilganligi ayon bo'ladi. Abdulxoliq G'ijduvoniylar asarning so'nggida katta agiografik asarlarga xos bo'lgan murojaat shaklidan foydalanadi. Luqmoni Hakim tomonidan "Ey o'g'ilcham" undalmasining qo'llanilishi katta agiografik asarlarga xos hisoblanadi. Muallif "ey mening o'g'ilcham" undalimasini keltirish orqali insonlarni dunyoga berilishdan qaytaradi. Bu o'rinda tarkidunyochilik emas ko'p mol-u davlat topib u bilan ovvora bo'lish va Haq zikridan uzoqlashish nazarda tutilgan. Mazkur fikrlarni Muhammad alayhissalomning "Qanday yashasanglar, shunday o'lasizlar va qanday o'lsangizlar, shunday tirilasizlar" degan hadislar orqali quvvatlaydi. Muallif kitobxon bu asarni o'qib unga amal qilmasa bari bekor ekanligiga urg'u qaratadi. Barcha gaplar amal bilan chiroyli bo'lishi ta'kidlanadi. "Ilohi tariqat maydoni mardlari hurmatidan bu risola o'quvchilarga amal tavrini nasib ayla". Abdulxoliq G'ijduvoniylar yaratganning marhamatidan umidvor ekanligi va uning rasuliga salovotlar aytib asarni yakunlaydi. "Ey rahmlilarning rahmlisi! Rahmatingga sazovor qil! Hazrati Payg'ambarimizga, xonadon ahllariga va barcha izdoshlariga salot-u salomlarimizni yo'llaymiz! To'g'ri yo'lida yurganlarga salom bo'lsin". Abdulxoliq G'ijduvoniylarning bizgacha yetib kelgan "Vasiyatnoma" asari Ramziy ibn Mast Ali Kobuliy tomonida ko'chirilgan. Bizningcha mazkur kotib xojagon-naqshbandiy tariqatining vakil bo'lgan va bu ishni uchun sharaf deb bilganligi sababli o'zini "faqir ul-haqir" deya ataydi. Bu ham mazkur tariqatdagi kamtarlik, xoksorlikning bir belgisidir.

XULOSA

Abdulxoliq G'ijduvoniylarning "Vasiyatnoma" asari nafaqat tariqat vakillari uchun, balki keng omma uchun mo'jallangan manba hisoblanadi. O'zida tarbiyaviy jihatlarni namoyon etganligi sababdan bugungi kun uchun ham muhimdir. Bundan tashqari asardagi fikrlarning badiiylik asosida berilishi asarning ta'sir kuchini yanada oshirgan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шамсиддинхон Зиёвуддинхон ўғли Бобохонов., Абдулазиз Мансур. Нақшбандия тариқатига оид кўлёмалар фиҳиристи. – Тошкент. Мовароуннаҳр, 1993.
2. Мансуржон Азим ўғли. Ҳазрат Баҳовуддин Нақшбанд. – Тошкент. Сано-стандарт, 2015.
3. Хожа Абдулхолиқ Фиждувоний. Васиятнома. – Тошкент. Мовароуннаҳр. 2018.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. izohli.uz.
5. Jo'rayev H., Sayidolimov J. Agiografik asarlar tasnifi. Filologiyaning dolzarb muammolari va uning innovatsiyon yechimlari mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to'plami. – Farg'ona, 2022.